


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



Ro‘yxatga olindi: BD-60310200-1.18

DIPLOMATIYA ASOSLARI
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi: 310000 – Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 60310200 – Xalqaro munosabatlar


Toshkent–2024


Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar instituti direktori

Xalqaro munosabatlar kafedrasi mudiri

ARM boshlig'i

 D.S. Salayev

 S. M. Bo'ronov

 M.M. Yuldasheva

Fan/modul kodi DA1104	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Diplomatiya asoslari	48	72	120
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda diplomatiya asoslariga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish, mazkur yo'nalishga mos tasavvur va ko'nikmalarni rivojlantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - diplomatiya tarixi, diplomatik xizmatning rivojlanishi, huquqiy asoslari haqida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, tashqi siyosiy faoliyat va diplomatik munosabatlarning rivojlanish tendentsiyalari mohiyatini ochib berish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</p> <p>Mazkur fan dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-mart "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risidagi" 87-sonli buyrug'iga muvofiq, xalqaro tan olingan xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kiruvchi Florida universiteti (University of Florida (THE 132th)) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://catalog.ufl.edu/UGRD/courses/political_science/</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. Diplomatiya tushunchasi va mohiyati</p> <p>Kursning predmeti va maqsadlari. Diplomatiyaning mazmun-mohiyati, diplomatiya haqidagi nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlar, diplomatiya tushunchasining rivojlanish tarixi, diplomatik va konsullik munosabatlariga oid xalqaro va milliy shartnomalar, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarning tasnifi.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. Diplomatiya va diplomatik xizmat tarixi</p> <p>Qadimgi dunyoda diplomatik xizmat, dastlabki elchilik munosabatlari. O'rta asrlarda diplomatik xizmatning rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Vestfaliya tizimining diplomatik munosabatlarga ta'siri. 1814-yil Vena konferensiyasi va Vena reglamenti. XX asr diplomatiyasi. Xalqaro</p>			

munosabatlarda tartibot va hokimiyat. Zamonaviy davr diplomatik munosabatlarining rivojlanishi va diplomatik xizmatning ahamiyati.

3-mavzu. Davlat tashqi siyosiy faoliyat organlari

Davlat boshqaruv organlari va diplomatiya. Tashqi siyosat tushunchasi. Tashqi siyosiy faoliyat organlari: prezident, parlament, tashqi ishlar vazirligining vakolatlari. Tashqi siyosat faoliyatning konstitutsiyaviy va ixtisoslashgan organlari. Davlat tashqi siyosiy faoliyat organlarining xorijiy va milliy amaliy tajribalari.

4-mavzu. Diplomatik vakolatxonalar

Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi diplomatik vakolatxonalar. 1961-yilgi "Diplomatik munosabatlar to'g'risida"gi Vena konvensiyasi. Chet ellardagi diplomatik va konsullik vakolatxonalar, maxsus missiyalar. Diplomatik vakolatxonalarining tuzilishi. Diplomatik vakolatxonalarining vazifalari. Diplomatik vakolatxona rahbarini tayinlash.

5-mavzu. Diplomatiya turlari

Xalq diplomatiyasi. Madaniy diplomatiya. Iqtisodiy diplomatiya. Parlament diplomatiyasi. Ta'lim diplomatiyasi. Kuch diplomatiyasi. Dollar diplomatiyasi. Mediya diplomatiyasi. Diplomatiya turlarining ahamiyati. Diplomatiya turlarining rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.

6-mavzu. Diplomatik til va uning shakllanish xususiyatlari

Diplomatik tilning ahamiyati va mohiyati. Diplomatik tilning tarixi va rivojlanishi. Diplomatik iboralar. Diplomatik nutq va ritorikaning ta'siri. Do'stona va nodo'stona harakat uchun qo'llaniladigan so'zlar va iboralar.

7-mavzu. Xalqaro shartnomalar va ularni yuritishning tarixiy aspektlari

Diplomatiyada xalqaro shartnomalarning ahamiyati. Xalqaro shartnomalar tarixi. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama diplomatik munosabatlar va shartnomalar. "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi (1969 yil). Xalqaro shartnomalarning turlari va xalqaro shartnomalarning tili. Rozilik bildirish, ratifikatsiya, parafirlash, al'ternat qoidasi, shartnomalarni saqlash. Shartnomalarga amal qilish.

8-mavzu. Diplomatik yozishma tushunchasi va turlari

Diplomatik yozishma tarixi. Diplomatik yozishma tushunchasi. Diplomatik yozishma turlari: shaxsiy nota, verbal nota, esdalik xati, memorandum, yarim rasmiy shaxsiy xat. Diplomatik yozishmalarning davlatlararo munosabatlarga ta'siri. Davlatlar va tashkilotlar o'rtasidagi diplomatik yozishmalar. G.Nikolson va R.Feltxem lug'ati.

9-mavzu. Diplomatika tarixining yirik namoyandalari

Diplomatikaning rivojlanishida tarixiy shaxslarning o'рни va roli. Amir Temur, Yuliy Sezar, Kardinal Richelieu, Fransua de Kallier, Taleyron, Otto von Bismark, A.Gromiko, Lord Solsberi va boshqa diplomatikaning muhim tarixiy shaxslari.

10-mavzu. Diplomatik missiyaning boshlanishi va tugashi

Diplomatik missiya tushunchasi. Davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlarning o'rnatilishi. Elchini tayinlash masalalari, "agreman" olish tartibi. "Persona grata", "persona non grata". Elchining o'z lavozimini egallash jarayoni. Ishonch yorlig'i. Ishonch yorlig'i topshirish marosimlari. Diplomatik missiyaning tugashi va tugatilishi.

11-mavzu. O'zbek diplomatikasining tarixi

O'zbek elchilik munosabatlarining tarixiy ildizlari. Qadimgi qo'lyozmalarda: "Avesto" bitiklari, "Osorul boqiya", "Qutadg'u bilik"da (Saodatga yo'llovchi bilim) elchilik masalalari va ularning ahamiyati. O'rta asrlarda diplomatik munosabatlar: "Siyosatnoma", "Temur Tuzuklari", "Zafarnoma" va boshqalarning ahamiyati. "Boburnoma", "Tarixi Rashidiy", "Humoyunnoma"da diplomatik munosabatlar haqida ma'lumotlar. Xonliklar davrida diplomatika: Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-muluk" asari, Salimiyning "Kashkuli Salimiy" asarlarida diplomatik munosabatlar.

12-mavzu. Mustaqil O'zbekistonning diplomatik munosabatlarining asoslari

Mustaqil O'zbekistonning diplomatik munosabatlarini boshlanishi, uning tashkiliy va huquqiy asoslari, ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni o'rnatishi. O'zbekiston diplomatikasining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston diplomatikasining muvaffaqiyatlari. Zamonaviy davr O'zbekiston diplomatikasining ustuvorliklari.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Diplomatika asoslari fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Diplomatika asoslari" faniga kirish
2. Diplomatik xizmat tarixi va asoslari
3. Davlat hokimiyati organlari tizimida diplomatikaning o'рни
4. Diplomatik vakolatxonalar va ularning asosiy funksiyalari
5. Xalq, madaniy, iqtisodiy va parlament diplomatikasining ahamiyati

6. Diplomatik tilning diplomatik munosabatlardagi o'rni
7. Xalqaro shartnomalar va ularni yuritishning tarixiy va zamonaviy jihatlar
8. Diplomatik yozishmalarning mazmun-mohiyati va ko'rinishlari
9. Qadimgi va zamonaviy davr diplomatlarining yirik namoyandalari
10. Diplomatik missiyaning boshlanishi va tugashi bilan bog'liq jarayonlar
11. O'zbek dipolmatiyasining rivojlanish bosqichlari
12. O'zbekistonning ikki va ko'p tomonlama diplomatik munosabatlari

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

- o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;
- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;
- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;
- kurs ishi (loyihasi)ni bajarish;
- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;
- berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;
- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

“Diplomatiya asoslari” fanidan mustaqil ish sifatida quyidagi mavzulardan berilishi tavsiya etiladi:

1. Qadimgi dunyo diplomatiyasi: Rim va Yunonistonda ilk diplomatik faoliyat
2. O'rta asrlarda diplomatik munosabatlarning rivojlanishi.
3. Amir Temur va Temuriylar davrida diplomatik faoliyat.
4. 1648-yilgi Vestfaliya shartnomasining diplomatik munosabatlarning rivojlanishiga ta'siri .
5. 1815-yilgi Vena Reglamenti va uning diplomatik faoliyat rivoji uchun ahamiyati.
6. Xalqaro shartnomalar va ularni yuritish tarixi .
7. Vudro Vilsonning “ochiq diplomatiya” tashabbusi

8. "Ad hoc" diplomatiya va "Rezident" diplomatiyaning paydo bo'lish bosqichlari, orasidagi farqlar.
9. 1961-yilgi "Diplomatik munosabatlar to'g'risida"gi Vena konvensiyasi va 1963-yilgi "Konsullik munosabatlari to'g'risida"gi Vena konvensiyasi.
10. Diplomatik tilning ahamiyati.
11. Parlament diplomatiyasining paydo bo'lishi.
12. Diplomatik yozishmalarning turlari.
13. Xalq diplomatiyasining rivojlanishi.
14. Diplomatiya tarixidagi mashhur diplomatlar.
15. Global muammolarni hal qilishda Sammit diplomatiyasining o'rni .
16. Konferensiya diplomatiyasining paydo bo'lishi va rivojlanishi.
17. Mustaqil O'zbekistonda diplomatik munosabatlarning rivojlanishi.
18. O'zbekistonning ikki tomonlama va ko'p tomonlama diplomatiyasi.

Talabalarni mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli "Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

3. **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Ushbu fanga bog'liq bo'lgan o'quv fanlarini o'zlashtirish doirasida diplomatiya asoslari xususiyatlarini o'rganish to'g'risida, diplomatiya tarixi, diplomatik xizmatlarni rivojlanishi, huquqiy asoslari haqida bilimlarga ega bo'lish haqida **tasavvurga ega bo'lish;**
- Diplomatiya bilan bog'liq voqea-hodisalarni tushunish, diplomatik korpuslar va tashqi ishlar vakolatxonalarining faoliyati bo'yicha ma'lumotlarni izlash va tanlay olish, tashqi siyosiy faoliyat va diplomatik munosabatlarning rivojlanish tendentsiyalarini tasniflash va baholash **ko'nikmalariga ega bo'lish;**
- Diplomatiya asoslari bilan bog'liq jarayonlarni o'rganish va tadqiq etishda asosiy tahlil usullarni qo'llay olish, siyosiy vaziyatning holati va rivojlanish mohiyatini aniqlay olishi va tahlil qila bilish, ikki va ko'p tomonlama diplomatik munosabatlarni rivojlanish tamoyillarini tahlil va ularni ilmiy asosda talqin qila olish **malakalariga ega bo'lishi kerak;**

4.	<p style="text-align: center;">VI. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Қосимов А. Дипломатия асослари. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта таълим вазирлиги. Тошкент давлат шарқшунослик институти. 1996. 2. Хидояттов Г.А. Основы дипломатии. Ташкент, УМЭД, 2002. 3. Миркасымов С.М., Рахимова М.А. Дипломатическая служба: теория и практика. Учеб. пос. –Т., 2004. - 222 с. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga ayanmoqda: o'quv qo'llanma / Sh. Mirziyoyev. – 2021. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi: o'quv qo'llanma / Sh. Mirziyoyev. – 2021. 3. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun: o'quv qo'llanma / Shavkat Mirziyoyev. – 2022. 4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. O'quv qo'llanma / Sh. Mirziyoyev. – 2020. 5. Sayfullayev D.B. Xorijiy davlatlar diplomatik xizmati. O'quv qo'llanma. – T.: TDSHU, 2022 y. – 264 b. 6. Абдуллаева Л.М. Особенности дипломатического протокола: практика Республики Узбекистан. –Т.: Zarkalam. 2005. -176 с. <p style="text-align: center;">Scopusdan maqolalar</p> <ol style="list-style-type: none"> 7. Manor, I., & Huang, Z. A. (2022). Digitalization of public diplomacy: Concepts, trends, and challenges. <i>Communication and the Public</i>, 7(4), 167-175. https://doi.org/10.1177/20570473221138401 8. Grincheva, N. (2024). The past and future of cultural diplomacy. <i>International Journal of Cultural Policy</i>, 30(2), 172-191. https://doi.org/10.1080/10286632.2023.2183949

Axborot manbalari

9. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
10. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
11. www.zivonet.uz;
12. www.bilim.uz;
13. www.uza.uz

6. Fanning o‘quv dasturi “Xalqaro munosabatlar” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2024-yil “26” 08 dagi “1” -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2024 yil “29” 08 dagi 1 — sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

7. **Fan/modul uchun mas’ullar:**

R.R. G‘oziyev – TDSHU, “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsent v.b., s.f.f.d. (PhD)

M.A. Asrorxo‘jayeva – TDSHU, “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD)

8. **Taqrizchilar:**

D.B. Sayfullayev – TDSHU, “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi professori, t.f.d.

E.S. Sultanova – JIDU “Siyosatshunoslik” kafedrasi professori, s.f.d.

A handwritten signature in blue ink, consisting of several loops and a long horizontal stroke extending to the right.